



TOVARLARNI HUDUD BO'YICHA IDENTIFIKATSIYALASH TARTIBI BELGILANDI

@huquqiyaxborot Manba: O'RQ-757-son, 03.03.2022-y.

Geografik ko'rsatkich

tovarni muayyan geografik obyekt hududidan kelib chiqqan tovar sifatida identifikatsiyalovchi belgidir

Intellektual mulk agentligi geografik

ko'rsatkichlarni huquqiy jihatdan muhofaza qilish sohasidagi **vakolatli davlat organidir**

Geografik ko'rsatkich muayyan geografik obyektga joylashgan va ushbu obyektning nomidan o'zi ishlab chiqarayotgan tovarni belgilash uchun foydalanayotgan bir necha yuridik yoki jismoniy shaxsning **talabnomasiga ko'ra ro'yxatdan o'tkazilishi mumkin**

Talabnomaning **davlat ekspertizasi** Agentlik tomonidan amalga oshiriladi hamda u rasmiy ekspertizani va talabnomada ifodalangan belgining ekspertizasini o'z ichiga oladi

Talabnomaning **rasmiy ekspertizasi** talabnoma Agentlikka berilgan sanadan e'tiboran **15 kunlik muddatda** amalga oshiriladi



Talabnomada ifodalangan **belgining ekspertizasi** talabnoma ko'rib chiqish uchun qabul qilinganligi to'g'risidagi qaror qabul qilinganidan keyin **1 oy ichida** o'tkaziladi



Davlat ekspertizasi natijalari asosida Agentlik geografik ko'rsatkichni yoki geografik ko'rsatkichdan foydalanish huquqini reestrda ro'yxatdan o'tkazishni patent boji to'langanligi haqidagi hujjat olingan sanadan e'tiboran **3 ish kunida** amalga oshiradi



Geografik ko'rsatkichdan foydalanish huquqi to'g'risidagi guvohnoma uning egasining geografik ko'rsatkichdan guvohnomada ko'rsatilgan tovar turiga nisbatan foydalanish huquqini tasdiqlaydi



Guvohnoma geografik ko'rsatkichdan foydalanish huquqi reestrda ro'yxatdan o'tkazilganidan keyin **3 ish kuni** ichida Agentlik tomonidan beriladi

Guvohnoma talabnoma berilgan sanadan e'tiboran **10 yil davomida** amal qiladi



Geografik ko'rsatkichlarni yoki geografik ko'rsatkichdan foydalanish huquqini ro'yxatdan o'tkazish uchun **patent bojlari** olinadi



Yuridik va jismoniy shaxslar geografik ko'rsatkichni boshqa davlatlarda ro'yxatdan o'tkazishga **haqli**

Ushbu Qonun rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.